



## BUGUNGI KUN PEDAGOGIK VA ZAMONAVIY TA'LIM TIZMI

*Jo'rayeva G.A.*

*TIQXMMI" MTU "Professional ta'lim" kafedrasi assistenti*

*Qurbonov M.O.*

*"TIQXMMI" MTU "YRK" fakulteti Professional ta'lim (Yer kadastru va yer tuzish)*

*2-kurs talabasi*

**Tayanch so'zlar:** pedagog, tizim, pedagogika, shaxs, imij, zamonaviy ta'lim, bilim, metod.

**Ключевые слова:** педагог, система, педагогика, личность, имидж, современная образования, знания, метод.

**Key words:** educator, modern educational system, pedagogy, personality, image, Finnish educational system, educational system.

Avvalombor, "pedagogika" so'ziga ta'rif beradigan bo'lsak, ushbu so'z yunonchadan olingan bo'lib "bola yetaklovchi" degan ma'noni anglatadi. Pedagogikaning kelib chiqish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, ilk bor pedagogika atamasi qadimgi Yunonistonda podshoxlar va mansabdor shaxslarning bolalarini tarbiyalovchi, ularga harbiy mahoratni o'rgatuvchi va ularni yetaklovchi shaxslarni pedagog deb atashkan. Keyinchalik bu faoliyat turi rivojlanib bugungi kungacha yetib keldi. Pedagog bu ta'lim tarbiya jarayonlarining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish maxanzimlarini tatqiq etadi, tarbiyaviy o'quv ishlarining mazmuni, tamoyillari va ularni tashkil etish shakli, usul hamda yo'sinlarini belgilab beradi. Bu pedagog so'zining ilmiy ta'rifi edi. Xalq orasida pedagoglarga ta'lim oluvchi yoshlarni tarbiyalovchi shaxs sifatida qaraladi. Ta'lim oluvchi yoshlar shaxsni tarbiyalash, o'qitish va uni shakllantirish pedagogning asosiy funksiyalari hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash Pedagogning asosiy tushunchasi sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga tik qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini

ifoda etadi. O‘qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta’minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma’lumotni olish imkoniga ega bo‘ladi. Tarbiyalash va o‘qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatleri shakllantiriladi. Shaxsni tarbiyalash va o‘qitish orqali o‘zida oldin bo‘lmagan ma’naviy-intellektual sifatlarga ega bo‘ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo‘ladi.

Bugungi kun pedagoglar ya’ni zamonaviy pedagoglar individual bo‘lmoqliklari lozimdir. Bu degani har bir pedagogning muxim hayotiy pozitsiyasi va o‘z ishining ustasi bo‘lmoqligidir. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak Zamonaviy pedagog - bu psixolog, rassom, do‘st va maslahatchi xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan shaxs. O‘qituvchi kun davomida ko‘p marta qayta tug‘ilishi kerak va o‘z ishini qanchalik ishonarli qilsa, natija shunchalik aniq bo‘ladi. Zamonaviy pedagog – ijodkor, mehnatkash, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yuvchi, o‘z faoliyatida eng so‘nggi uslubiy ishlanmalardan foydalanadigan shaxs. Zamonaviy pedagog - o‘z Vatani vatanparvari. Mamlakat bizga eng qimmatli narsa – kelajagini ishonadi. Zamonaviy pedagog bolalar va ularning ota-onalari uchun oila bilan birgalikda ta’limning ma’suliyatli vazifalarini hal qilishdajamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogning mahorati uning faoliyatida ko‘rinadi. Pedagog avvalambor ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etishni, dars jarayonini mexanizmlari va qonunyatlarini yaxshi bilmog‘i lozimdir. Bugungi kun pedagoglari ko‘plab zamonaviy ta’lim metodlarini bilmoqliklari lozimdir. Ushbu zamonaviy ta’lim metodlari dars jarayonlarini yanada qiziqarliroq o‘tishiga yordam beradi. Ya’na ikki tushunchaga aniqlik kiritib ketsak. Ko‘pchilik o‘qituvchi va pedagog tushunchalarini bir xil deb o‘ylashadi. Aslida ham bu ikki tushunchani pedagog va o‘qituvchi atamasini ta’lim jarayonida sinonim sifatida ishlatamiz. Bir qaraganda bu to‘g‘ri. Ammo ayrim qirralari bilan ikkisi bir-biridan farq qiladi. Ya’ni, pedagog (yun. paidagogos - tarbiyachi) - pedagogika mutaxassisi; bolalar va yoshlarni tarbiyalash va o‘qitish bilan shug‘ullanuvchi, shu soha bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan shaxsdir. O‘qituvchi esa umumiy o‘rta ta’lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy o‘quv yurtlarida ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan, o‘quv jarayoniga rahbarlik qiladigan mutaxassisdir. Pedagoglar bugungi kunda yurtimizda ta’lim tizimi rivojlanmoqda, ta’limga doir yangi qonunlar ishlab chiqilmoqda, yangi maktablar, bolalar bog‘chalari, OTMLar qurilib foydalanishga topshirilmoqda. Shu bilan birga yangi o‘qitish metodlari kiritilmoqda. Bularan biri bu Finlyandiya ta’lim tizimidir. Hop, Finlandiya shimoliy yevropda joylashgan 8mln aholiga ega bo‘lgan davlat. Bu davlat ta’lim tizimini bizning davlatimiz mintalitetiga to‘g‘ri keladigan va to‘g‘ri kelmaydigan jihatlari bor. Bu davlat ta’lim tizimini davlatimizdagi ta’lim tizimni solishtirib qaraydigan bo‘lsak, u quyidagi jadvalda aks etadi:



**O‘zbekiston va Finlandiya ta’lim tizimi**

O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMI	FINLANDIYA TA’LIM TIZIMI
<b>Pedagog kasbiga bo‘lgan hurmat</b>	
<p>Bizda pedagog-o‘qituvchilarga hurmat yuqori.</p>	<p>Pedagog kasbi davlatdagi eng oliy martabadagi kasblardan biri hisoblanadi. Shunga mos tarzda bu kasb egasi bo‘lish ham qiyin hisoblanadi ya’ni hamma ham o‘z-o‘zidan pedagog bo‘lib qolavermaydi.</p>
<b>Baholash tizimi</b>	
<p>Bizda yuqori va passiv o‘zlashtiruvchilar, ya’ni yaxshi va yomon o‘qiydiganlar kabi tushunchalar bor. Ta’lim tizimimizda ayrim o‘quv jarayonlarida baholash shakli kundalik yoki jurnallar orqali yuritiladi. Bu o‘quvchilarni bilim bo‘yicha ajratishga, bahosiga qarab muomala qilishga olib keladi. -Bizning mentalitetimizda bironing bolasiga nisbatan ota-onalarda o‘z bolasini taqqoslash tushunchasi bor, ya’ni o‘z bolasiga: “qara uning bolasi to‘qqiz yoshida mana bu natijaga erishibdi, sen qachon shu natijaga erishasan” kabi va shunga o‘xshash gaplarni aytadi.</p>	<p>-Finlandiyada esa bunday tushuncha yo‘q, ya’ni o‘zlashtirish darajalari bo‘yicha ta’lim oluvchilar taqsimlanmaydi.  -Finlandiyadan bunday tushunchalar yo‘qligidir, ya’ni ota-onalarda o‘z bolasini boshqalarning farzandlari bilan taqqoslash tushunchasi yo‘q.</p>
<b>Uyga vazifa</b>	
<p>Bizda kunning uchdan bir qismi uyga vazifani bajarish bilan o‘tadi, bu o‘sinib kelayotgan yosh avlodning mustahkam bilimga ega bo‘lishiga ko‘makdosh bo‘ladi.</p>	<p>Finlyandiyada o‘quvchilar faqat maktablarda ta’lim olishadi. Uyda esa oila davrasida, ota-onasi bilan vaqtini o‘tkazadi. Bu davlatda “bola boladek yashasin” degan tushunchaning mavjudligi, ya’ni bola shaxsiga bo‘lgan qarashning yuqori darajadaligidir. Uyga vazifalarning deyarli yo‘qligi yoki o‘ta og‘ir emasligi.</p>
<b>Ta’lim muassasalar shakllari</b>	
<p>Bizda davlat, ixtisoslashgan, nomdor hamda xususiy maktab hamda oliy ta’lim muassasalari mavjud. Bu fuqarolarga majburiy, lekin erkin o‘qish shaklini tanlash imkonini beradi.</p>	<p>Finlyandiyada faqatgina davlat maktablari mavjud. Shu bois hamma maktabning ta’lim saviyasi teng. Qaysidir maktabda ta’lim saviyasi balondroq yoki qaysidadir pastroq degan tushuncha yo‘q.</p>
<b>Maktabda ishlaydigan har bir xodimning oylik maoshlari</b>	
<p>Bizda oylik maoshlar tabaqalashtirilgan, pastdan yuqoriga qarab o‘sinish shaklida namoyon bo‘ladi.</p>	<p>Maktab direktori ham maktab qorovuli ham bir xil maosh olishadi. Boshqacha aytganda maktablarda hamma teng ishlaydi, kimdir ko‘proq yoki kimdir kamroq emas va shunga mos tarzda qancha ishlagan bo‘lsa, shuncha maosh oladi.</p>

Keltirilgan yuqoridagi ma'lumotlar orasida xato fikrlar ham bo'lishi mumkin. Albatta, Finlyandiya ta'lim tizimini bizga to'g'ri kelmaydigan jihatlari ham bor. Misol uchun ularning kiyinish madaniyati, ta'lim oluvchilar o'rtasidagi ayrim qo'sh tirnoq ichidagi "munosabatlar" va shunga o'xshash jihatlarni keltirib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi kunda yurtimizda zamonaviy ta'limga bo'lgan e'tibor ancha ortgan. Zamonaviy ta'lim bu darsni zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalangan holatda o'tishdir. Zamonaviy ta'lim o'quvchi va talabalarda ijodiy fikrlash, hayotiy ko'nikmalar, qadriyatlar ta'limi, tahliliy ko'nikmalar va qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy ta'limda o'quvchi va talabalarining mustaqil ta'lim olishiga va o'z ustida mustaqil ishlashiga qaratilgan. Zamonaviy ta'limda, shuningdek, o'quvchi va talabalarga dars qiziqroq bo'lishi uchun turli ilovalar, You Tube, elektron kitoblar va qo'llamalar, filmlar kabi eng so'nggi texnologiyalardan foydalaniladi. Xo'sh, bunday sharoitda zamonaviy ta'limning o'ziga xos ustunliklari va kamchiliklari bormi degan savol tug'iladi: - albatta bor.

Zamonaviy ta'lim tizimining ustunliklari:

- masoafiy ta'limning mavjudligi- bu talabalarga juda ham ko'plab qulayliklar yaratadi;
- mustaqil ta'lim- bu talabalarining o'z ustida mustaqil ishlash imkoniyatini beradi;
- kam xarajatligi- ya'ni qog'ozbozlik kamligi va turli sabablar tufayli talabalarining pul sarflashi kamayadi;
- talabalarga yo'nalganligi- bunda talaba o'ziga kerak bo'lgan fanlarni tanlash imkoniyatiga egaligi va boshqalar.

Zamonaviy ta'lim tizimidagi kamchiliklar:

Zamonaviy ta'lim yurdimizda hali to'liq joriy qilinmanagan, shu bois yurtimizning ayrim hududlarda zamonaviy ta'lim, ayrimlarida esa ana'naviy ta'lim tizimida o'quv jarayonlari olib borilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib, shuni ta'kidlashimiz mumkinki, yuqoridagi fikr va muloxazalaridan asosida ta'lim tizimida bir qator kamchiliklar bo'lib, bular kredit modul tizimidagi kamchiliklar, ayrim pedagoglarning dars jarayonida o'z faniga emas, balki tarbiya va ma'naviy ta'lim haqida suxbat o'tkazishlari o'zgarmasdan qolmoqda.

Aslida, har bir pedagog o'z fanini o'quvchilarga darsdan tashqari mavzularga e'tibor qaratmagan holda mukammal tarzda o'rgatmog'i kerak. Bu holat asosan maktablarda uchraydi. Har bir pedagog o'z fan sohasini mukammal darajada bilishi va uni o'quvchi va talabalarga tushunarli darajada yetkazib bera olishi



kerak. Pedagog notliqlik va psixologiya fanini ham bilishi kerak. Chunki har bir bolaning o'ziga xos karakteri va psixologiyasi bo'ladi. Pedagog har bir bolaga individual tarzda yondashmog'i lozimdir.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. – Toshkent, 2017 yil 7 fevral, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmoni.
2. Abdullaev Yu.N. Xorijiy oliy ta'lim. tajriba va taraqqiyot yo'nalishlari. Darslik. -T.: O'zbekiston, 2000. - 200 bet.
3. Xodjabayev A. Kasbiy ta'lim metodologiyasi: uslubiy qo'llanma – T.: Fan texnologiyasi 2007. –192 b.
4. www.pedagog.uz
5. www.edg.com

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolda bugungi kun pedogleri, pedagogika atamasining ma'nosi, zamonaviy ta'lim tizimi va undagi muammolar, chet eldagi ayrim davlatlar ta'lim tizimi haqida va uni bizning ta'lim tizimimizdan ustunliklari va kamchiliklari, yurtimizda kirib kelayotgan Finlyandiya ta'lim tizimi, pedagog aslida kim va u qanday imijda bo'lishi kerak, bugungi kun o'quvchilarining pedogog shaxsiga bo'lgan munosabatlari haqida mulohaza yuritiladi.

#### РЕЗЮМЕ

В этой статье речь пойдет о педагогах сегодняшнего дня, о значении термина педагогика, о современной системе образования и проблемах в ней, о системе образования некоторых стран за рубежом и ее преимуществах и недостатках перед нашей системой образования, о финской системе образования, которая вошла в нашу страну, о том, кем на самом деле является педагог и в каком образе он должен быть, об отношении сегодняшних учеников к личности педагога размышления.

#### SUMMARY

In this article, today's pedogs, the meaning of the term pedagogy, the modern educational system and the problems in it, about the educational system of some countries abroad and its advantages and disadvantages from our educational system, enter into our country the Finnish educational system, who is the pedagogue in fact and in what image it should be, reflect on the.